

USMONIYLAR IMPERIYASI: SULTON SALIM III DAVRI*Termiz Davlat pedagogika instituti**3-kurs talabasi Rustamova Sevinch*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Usmoniylar imperiyasi hukmdori Sulton Salim III ning islohotlari va hukmronlik davri tahlil qilinadi. Salim III tomonidan amalga oshirilgan "Nizom-i Jadid" dasturi, uning harbiy, moliyaviy va ta'lim sohalaridagi modernizatsiya harakatlari, shuningdek, tashqi siyosatdagi murakkab vaziyatlar yoritilgan. Shuningdek, uning hokimiyatdan ag'darilishi va o'limi sabablariga ham e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar. Usmoniylar imperiyasi, Sulton Salim III, Nizom-i Jadid, islohotlar, harbiy modernizatsiya, tashqi siyosat, yanicharlar, taxtdan ag'darilish.

Abstract. This article analyzes the reign and reforms of Sultan Selim III, a ruler of the Ottoman Empire. It discusses the "Nizam-i Cedid" program initiated by Selim III, focusing on military, financial, and educational modernization efforts, as well as the complex foreign policy challenges of his time. The article also highlights the reasons behind his deposition and eventual death.

Keywords. Ottoman Empire, Sultan Selim III, Nizam-i Cedid, reforms, military modernization, foreign policy, Janissaries, deposition.

Usmoniylar imperiyasi tarixida Sulton Salim III (1761–1808) muhim islohotlar va murakkab siyosiy davrlar bilan yodga olinadi. U 1789–1807 yillarda Usmoniylar taxtida bo'lgan va mamlakatni modernizatsiya qilishga harakat qilgan hukmdorlardan biridir. Uning hukmronlik davri Usmoniylar imperiyasi ichki va tashqi inqirozlar girdobida qolgan davrga to'g'ri keladi.

Sulton Salim III otasi Abdulhamid I vafotidan so'ng taxtga o'tirdi. U yoshligidan davlat boshqaruvi, harbiy strategiya va adabiyotga qiziqqan, she'rlar yozgan va ma'rifatparvar hukmdor sifatida tanilgan. Taxtga kelishi bilan u imperiyani mustahkamlash va isloh qilish yo'llarini izlay boshladi.[1,382].

Salim III o'z davrida "Nizom-i Jadid" (Yangi tizim) nomli keng ko'lamli islohotlar dasturini amalga oshirdi. Ushbu islohotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Harbiy soha: Yangi, zamonaviy armiya tuzildi. Bu armiyaga Yevropa uslubida tayyorgarlik ko'rgan ofitserlar boshchilik qildi. Harbiy texnika va taktikalarni yangilashga e'tibor qaratildi.

2. Moliyaviy tizim: Davlat byudjetini mustahkamlash uchun soliqlar tizimi qayta ko'rib chiqildi va yangi soliq turlari joriy etildi.

3. Ta'lim va ma'rifat: Salim III ma'rifatga katta e'tibor berdi. Yevropa davlatlaridan diplomatlar va olimlarni taklif qilib, ilm-fan va texnologiyani rivojlantirishga intildi.

Salim III hukmronligi davrida Usmoniylar imperiyasi Yevropa davlatlari bilan murakkab diplomatik va harbiy aloqalarga ega edi. Ayniqsa, Rossiya va Avstriya bilan bo'lgan urushlar imperiyaning ichki va tashqi siyosatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. U, shuningdek, Frantsiya bilan hamkorlik qilishga harakat qilgan, ammo Napoleonning Misrga bostirib kirishi bu aloqalarni yanada murakkablashtirdi.

Salim III ning islohotlari ba'zi guruhlar, ayniqsa, eski armiya – yanicharlar tomonidan qarshilikka uchradi. Yanicharlar uning siyosatini o'zlariga tahdid deb hisoblab, unga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. 1807-yilda Salim III taxtdan ag'darilib, mahbuslikka hukm qilindi. 1808-yilda qo'zg'olonchilar tomonidan o'ldirildi.[2,273].

Tarixchilarning aytishicha, Salim jasur, saxiy va mehribon odam bo'lgan. U ilm-fan va san'at rivojiga xissa qo'shgan. U hukmron bo'lgan vaqt Istanbul kutubxonalarida yevropaliklarning tillaridan turk tiliga tarjima qilingan ilmiy asarlar ko'paygan. Xattotlik san'anti bo'yicha qilingan asarlar Madani munavvarda Rasululloh sallollohu alayhi vassallam masjidlarida turibdi. Ilxomiy taxallusi bilan g'azallar bitgan. Bular bilan bir qatorda u qurollar bilan ishlashni yaxshi bilgan va davlatda bo'layotgan real hayot bilan ham yaxshi tanish bo'lgan. Voliylariga yozgan maktublarining birida: "Adolatsizlik ko'paydi va hamma yoqda xarobagarchilik. Qozilar, noiblar, amirlar, ayonlar va jizya yig'uvchilar har xil zulm qilmoqda va

shuning uchun ham bu mansablarga munosib bo'lmaganlarni tayinlamanglar". Usmoniylar saltanatida og'ir holat hukmron edi. Bu holat o'n yildan beri davom etardi.

Harbiy sohasidagi omadsizliklar turklarni yanada ko'proq taslim bo'lishga majbur etardi. Misol uchun, 1718 yil Pojarevask sulh bitimi imzolangandan so'ng savdo bitimi ham imzolandi, bu esa Avstriya fuqarolariga atigi 3 foizlik olib kirish va olib chiqish bojlari bilan butun Usmoniylar saltanati hududida erkin savdo qilish huquqini berdi. XVIII asrning o'rtalariga kelib, Turkiyada katta imtiyozlardan foydalangan imtiyozli xorijiy savdogarlar qatlami yuzaga keldi. Bu qatlam vakillari ular bilan va xorijiy diplomatlar bilan tilmochlar sifatida ishlagan va kelgusida ular ham soliq to'lovlaridan ozod etilgan sulton fuqarolari - greklar va armanlarni jalb qilardi. Tabiiyki, Istanbuldagilar o'zgartirishga harakat qilishdi. 1653 yil Bosh vazir Tarxunchi Ahmad posho birinchi marta kirish va chiqishlar ko'rsatilgan byudjetni taklif qildi. Byudjetdagi tanqislikni yopish uchun soliqlarni nazorat qilish yo'lga qo'yildi, davlat chiqimlari qisqartirildi, yanicharlar qo'shni soni ham qisqartirildi.

Bu qo'pol usullar bilan bir qatorda, davlat daromad manbalari ijara shartlari o'zgartirildi. Ulardan davlat g'aznasiga daromad (bu daromad birliklari muqataa deb atalardi) kelib tushadigan korxonalarini kimoshdi savdosiga qo'yish amaliyoti uzoq vaqtdan mavjud edi, lekin ilgari ijara muddati uch yil bilan cheklangan bo'lsa, endilikda umrbod ijaraga beriladigan bo'ldi. Malikane nomini olgan bu institut 1695 yil paydo bo'lgan. Dastlabki pallalarda u g'aznani to'ldirishga xizmat qilgan, lekin vaqt o'tishi bilan poraxo'rlikning o'sishiga olib kelgan, ijarachilar o'limidan keyin esa korxonalar davlatga qaytarilmagan.[1,390].

Asta-sekinlik bilan timarlar – ularning egalari harbiy xizmat o'tashi lozim bo'lgan harbiy lenlar ham feodallar mulkiga o'ta boshladi. Markaziy hukumat zaifligidan foydalanib, ularning ko'pchiligi bu yerlarni davlatdan arzon-garovga sotib olardi, oqibatda g'azna unga juda zarur bo'lib turgan pullardan mahrum bo'lardi. Hatto davlat xizmatchilari va harbiylarga maosh to'lash uchun ham mablag' yetishmasdi. 1775 yil davlat obligatsiyalar chiqarilgan bo'lib, ular bo'yicha investorlar soliq tushumlaridan daromad olish umrbod huquqini qo'lgan kiritardi. Davlat amalda

fuqarolardan naqd pulni qarzga olardi va bu fuqarolar qanchalik ko'p yashasa, kapital kiritish ular uchun shunchalik foydali bo'lardi. Oxir-oqibatda qarzlarni to'lash uchun davlat Gollandiya, Ispaniya va Marokashdan qarz olisha majbur bo'lardi.

Salim III hukumat tepasiga kelgan payt saltanatdagi vaziyat shunday edi. Biroq davlatga asosiy tahdidni bostirib kelayotgan Avstriya va Rossiya qo'shinlari solardi. Turklar ketma-ket janglarda mag'lub bo'lib, o'n minglab askarlar halok bo'lardi va asir tushardi, 1789 yil noyabrga kelib, rus qo'shinlari Benderni egalladi va Dunaygacha yetib bordi, avstriyaliklar esa Belgrad va Buxarestni ishg'ol qildi. Bunday murakkab vaziyatda Salim III ni diplomatiya qutqardi. 1790 yil 1 fevralda turklar pruss savdo kemalariga xuddi boshqa davlatlarga kabi imtiyozlar taqdim etish evaziga Prussiya bilan harbiy ittifoq tuzdilar. Bu haqidagi xabar avstriyaliklar va ruslarni noqulay ahvolga solib qo'ydi. Usiz ham cho'zilib ketgan urush kutilmagan tarzda o'zgarib ketishi mumkin edi va hamma o'z uchun eng foydali shartlarda sulh tuzishni istardi.

Avstriyaliklar Jurja yaqinida jiddiy mag'lubiyatga uchragach, ular bir tomonlama muzokaralarga kirishdilar va 1791 yil avgustda Sistovo sulhi tuzildi, unga ko'ra Avstriya barcha bosib olgan yerlarini Turkiyaga qaytarib berdi. Rossiya bilan Yass sulh shartnomasi xuddi shu yili uzoq muzokaralardan so'ng 29 dekabrda imzolandi, Turkiya ruslarga Qrimni abadiy topshirdi, davlatlar o'rtasidagi chegara esa Dnestrgacha surildi. Bu urushlarning yakun topishi Usmoniylar saltanatida tarixiy o'zgarishlar ro'y berayotgan paytga to'g'ri keldi. 1791 yil avgustning boshlarida Salim III vazirlar va posholar bilan maslahatlashgach, unga mamlakatda inqirozni bartaraf qilish bo'yicha takliflar berishlarini amr qildi. Natijada sultonning ko'rib chiqish uchun 22 ta loyiha taqdim etilib, ularning katta qismi harbiylarga emas, fuqaro shaxslarga tegishli bo'lgan. Takliflar ijtimoiy, iqtisodiy, diniy va eng avvalo xarbiy sohalar bo'yicha edi. Masalan, buyuk vazir Xo'ja Yusuf-poshoning tavsiyalari orasida soliqlar to'lashdan ozod etiladigan va tinchlik davrida shaharlar va qishloqlardagi xavfsizlikni ta'minlaydigan, urush paytida esa frontga jo'natiladigan xalq lashkari otryadlari tashkil qilish ham bor edi.

Shu asnoda, Venada sakkiz oy elchi bo'lib turgan Abu Bakr Ratib afandi Istanbulga qaytdi. Uning missiyasi Gabsburglar imperiyasi hayotining barcha tomonlari bilan yaqindan tanishib chiqishdan iborat bo'lgan. Safar yakunlari bo'yicha yozilgan 490 betdan iborat mufassal hisobotda u Avstriya armiyasining tashkil qilinishi, davlat tuzumi, soliq tizimi, banklar faoliyati, bojxona va h.k. haqida ma'lumotlar keltirgan. Ayniq uning nuqtai nazarlari pirovardida butun usmoniylar jamiyatini larzaga keltirgan islohotlar xarakterini belgilab berdi.[2,281].

1793 yil 13 fevralda Salim III usmoniylar armiyasini qayta tashkil qilish haqida farmon chiqardi. Bu islohotning yakuniy maqsadi harbiy qismlarda tartib o'rnatish, Yevropa namunasi bo'yicha yangi qismlar tashkil qilish, usmoniylar armiyasini qayta qurollantirish va modernizatsiya qilish bo'lgan. Yangi armiya nizom-i jadid nomini oldi, uni tashkil qilish uchun esa fransuz ofiserlari jalb qilindi. «Yangi tartib» ilk bo'linmalari 1600 kishidan iborat bo'lib, Levante kazarmalarida joylashtirildi, lekin ularning soni 12 ming kishiga yetkazish rejalashtirilgan bo'lib, 1794 yil Uskyudarda ulkan kazarmalar qurish boshlandi.[3,117].

Shuningdek, artilleriya qo'shinlari va dengiz flotini modernizatsiya qilish bo'yicha dadil qadamlar qo'yildi, turk harbiylarini o'qitish uchun Fransiya va Yevropaning boshqa davlatlaridan instruktorlar taklif etildi. 1795 yil Oltin shox qirg'og'i bo'yida harbiy-muhandislik bilim yurti ochilib, u yerda mahalliy mutaxassislar saboq berardi. Bu loyihalarni uzluksiz moliyalashtirish maqsadida maxsus Iradi Jadid moliya muassasasi tashkil qilindi. Mazkur muassasa moliyasi ba'zi soliqlar asosida shakllangan.

Bular bilan bir qatorda yanicharlar xarbiy qismlarini ham tartibga olish ishlari boshlangan. O'sha vaqtga kelib oldinlari eng sara xarbiy qo'shin bo'lib, usmoniylar armiyasining ko'rki bo'lgan bo'linmalar bebosh xarbiy qismlariga aylangan edi. Xarbiy qismlaridan qochish keng tarqaldi, ba'zi yanicharlar maydo savdo va boshqa qonunga xilof ishlar bilan shug'ullanadigan bo'ldi. Sulton joriy qilgan yangi qoidalarini o'zlarining holatiga qarshi deb bilgan yanicharlar buyruqlarga bo'yinsinmadilar va nizomi jadidga qarshi targ'ibot o'tkaza boshladilar. Bunga ma'lum ma'noda islohatlar

muvoffaqiyatiga ishonmagan xorijiy diplomatlar ham o'z xissalarini qo'shdilar. O'zgarishlarni ko'plab din peshvolari ham xavotir bilan qabul qildilar. Chet elliklar ta'sirining kuchayishidan xavfsiragan holda ular yangi hariy qismlarda ro'y berayotgan voqea-hodisalar haqida aholi o'rtasida turli mish-mishlar tarqata boshladilar. Nizom-i jadid ofiserlari va askarlari an'anaviy qo'shinlardan farq qiladigan libos kiyardi va omi odamlar uchun ularda noxushlik va xavx-xatar ko'rish uchun shuning o'z kifoya qilardi. Aynan shu davrda Salim III o'zining ittifoqchilari – fransuzlardan kutilmaganda zarba oldi. 1798 yil iyulining boshlarida general Napoleon Bonapart qo'li ostidagi qo'shinlar Aleksandriyani egallab oldilar va Qohira tomon yo'l oldilar. Fransuzlar Misrda dastlabki uch hafta davomida usmoniylarga bergan bir qator og'ir zarbalar Konstantinopolda aks-sado berdi. «Kofirlarning ixtirolariga berilib ketgan» islohotchi sultonga bo'lgan ishonchga putur yetdi.

Xulosa sifatida aytganda Sulton Salim III Usmoniylar imperiyasining modernizatsiya yo'lida katta harakatlar qilgan hukmdor sifatida tarixda qolgan. Uning islohotlari qisqa muddatli bo'lsa-da, keyingi hukmdorlar va davlat arboblari uchun asos bo'lib xizmat qildi. U Yevropa ta'sirida zamonaviy davlat qurishga uringan birinchi Usmoniy sultonlaridan biri edi. Salim III ning harakatlari Usmoniylar tarixida modernizatsiya va yangilanishning ilk qadamlarini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Finkel, C. *Osman's Dream: The History of the Ottoman Empire*. London: John Murray. 2005.
2. Shaw, S. J., & Shaw, E. K. *History of the Ottoman Empire and Modern Turkey, Volume 1: Empire of the Gazis: The Rise and Decline of the Ottoman Empire 1280–1808*. Cambridge: Cambridge University Press. 1977.
3. Jo'rayev N. – "O'zbekiston tarixi", Sharq nashriyoti. 2011-y.
3. <https://www.islamonline.uz/site/item?id=780>